



TOSHKENT VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

# TOSHKENT VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2024-YIL YANVAR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi  
bo'limi  
Tel.: 71-202-86-66

## Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2024- yil yanvar oyida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024- yilning yanvar oyida viloyat korxonalaridan 7 507,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 109,0 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 109,1%ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5 663,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**B** – Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** - Ishlab chiqaradigan sanoat  
**D** - Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E** - Suv bilan taʼminlash;  
kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.


### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* %da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 0,3 %ga, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning – 0,9 %ga o'sganligi ta'sir qildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Togʻ-kon sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,4 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,7 %ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar oyida, %da)



### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


#### Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, %da



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar	2024- yil yanvar	Farqi +/-
Koʻmir, <i>ming t.</i>	5073,9	5836,0	762,1
Chaqiq tosh, <i>ming t.</i>	372,6	387,6	15,0
Kaolin, <i>ming t.</i>	815,6	866,6	51,0

**Ishlab chiqaradigan sanoat**



2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,6 trln. soʻmni yoki oʻtgan yilga nisbatan 109,1 %ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar oyida, %da)**



Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 %ni (2023- yilning yanvar oyida 2,2 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 4,6 % (7,5 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 49,8 % (47,8 %) va quyi texnologiyalisi – 20,1 % (22,4 %)ni tashkil etdi.


### Yuqori texnologiyali

Ulushi %da




### O'rta-yuqori texnologiyali

Ulushi %da




### O'rta-quyi texnologiyali

Ulushi %da



### Quyi texnologiyali

Ulushi %da




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 7,5 % (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 125,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 44,0 % (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 106,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,4 % (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 130,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 10,7 % (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 87,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,6 % (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 76,1 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2024- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 27,8 ming tonna o'simlik yog'i (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 m.), 18,4 ming tonna margarin mahsulotlari (150,2 %) ishlab chiqarilishi o'sganligi kuzatildi.

### O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da


#### O'simlik yog'i (tozalangan)




#### Pishloq va tvorog




#### Yumshoq bug'doy va spelta uni




#### Pivo




#### Aroq




#### Uzum vinosi




#### Sement



#### Paxta chigiti



#### Kalava ip



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar	2024- yil yanvar	Farqi +/-
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	26248,6	12157,5	-14091,1
Shakar, <i>ming t.</i>	29537,0	14304,1	-15232,9
Paxta tolasi <i>ming t.</i>	1998,0	3460,6	1462,6
Portlandsement, <i>ming t.</i>	38978,2	92644,9	53666,7

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish holati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan pasayishi ammoniy nitrat (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 91,2 %) mahsulotida ko‘rsatkichlari qayd etildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da**

**Ammoniy sulfat**



**Ammoniy nitrat**




**Etil spirti**



## Metallurgiya sanoati (yanvar oyida)



FHI  
%da




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 44,0 %ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 106,9 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 3306,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (yanvar oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,6 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 144,5 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 197,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



FHI  
%da






## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(yanvar oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,5 %ni tashkil etgan, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 87,2 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 635,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar oyida)



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,3 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 163,1 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 171,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,8 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 130,3 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 361,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI  
%da




## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar oyida)



FHI  
%da




2024- yilning yanvar oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,5 %ni, fizik hajm indeksi esa 129,5 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 263,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar oyida)

2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 61,8 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 173,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar oyida)



2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 237,9 ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 23,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar oyida)




2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlabchiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 111,8 %ni, ishlab chiqarish hajmi 307,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar oyida)

2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 123,5 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 93,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar oyida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,5 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (3,2 %ini) tashkil etdi.

2024- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 115,6 %ga oshganligi kuzatildi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar oyida, %da)




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar	2024- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1783,3	1913,3	130,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	307,8	358,3	50,5
Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, ming kub. m.	11597,0	13833,0	2236,0

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

yanvar oyida



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,02 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar oyida, %da)



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar	2024- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	58,5	68,7	10,2
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlar, mlrd.so'm	136,2	159,5	23,3














O'tgan yilning mos davriga nisbatan, Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarida 117,1 %ni tashkil etdi.

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**  
2024- yilning yanvar oyida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 12,8 trln. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 17,1 %ni tashkil etdi.

**Toshkent viloyati hududlari kesimida  
sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**  
2024- yilning yanvar oyida

	Mlrd. soʻm		Ulushi %da		%da		
	7 507,6		100		109,0		
<b>Toshkent viloyati</b>							
	Mlrd. soʻm	%da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	298,3	4,0	115,6		29,0	0,4	102,3
<b>Nurafshon</b>				<b>Boʻka</b>			
	Mlrd. soʻm	%da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	2 751,4	36,6	102,5		131,6	1,8	98,3
<b>Olmaliq</b>				<b>Zangiota</b>			
	Mlrd. soʻm	%da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	386,2	5,1	112,1		773,4	10,3	116,4
<b>Angren</b>				<b>Qibray</b>			
	Mlrd. soʻm	%da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	743,3	9,9	123,1		82,2	1,1	113,3
<b>Bekobod</b>				<b>Quy Chirchiq</b>			
	Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	285,8	3,8	109,2		43,2	0,6	115,3
<b>Ohangaron</b>				<b>Parkent</b>			
	Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	456,7	6,1	110,2		42,2	0,6	108,8
<b>Chirchiq</b>				<b>Piskent</b>			

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	41,4	0,6	92,1		86,2	1,1	112,1
<b>Yangiyo'l</b>				<b>O'rta Chirchiq</b>			
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	37,7	0,5	70,7		44,3	0,6	70,6
<b>Oqqo'rg'on</b>				<b>Chinoz</b>			
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	658,3	8,8	100,2		124,9	1,7	114,8
<b>Ohangaron</b>				<b>Yuqori Chirchiq</b>			
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	24,7	0,3	114,2		160,6	2,1	96,3
<b>Bekobod</b>				<b>Toshkent</b>			
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	186,7	2,5	108,2		119,6	1,6	112,4
<b>Bo'stonliq</b>				<b>Yangiyo'l</b>			

**Toshkent viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, %da**



■ 2023- y. IFO




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Nurafshon (2023- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 115,6%), Chirchiq (110,2%) shaharlari hamda Quyi Chirchiq (113,3 %) tumanida sezilarli darajada oshdi.

### Toshkent viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da

Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Olmaliq (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 36,6 %), Bekobod (9,9 %), Chirchiq (6,1 %), Angren (5,1 %) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Bo'ka (0,4 %) hamda Bekobod (0,3 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Olmaliq (19171,1 ming so'm), Ohangaron (6966,1 ming so'm) va Bekobod (7213,8 ming so'm) shaharlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2483,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari(ming so'm)  
va o'tgan yilning shu davriga nisbatan %da  
2024- yilning yanvar oyida**

	Sanoat mahsulotlari	% da
	<b>2483,8</b>	<b>107,6</b>
<b>Toshkent viloyati</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	5408,6	112,0
<b>Nurafshon</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	217,4	100,6
<b>Bo'ka</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	19171,1	100,2
<b>Olmalik</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	777,8	97,2
<b>Zangiota</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	2139,7	109,6
<b>Angren</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	4440,7	115,4
<b>Qibray</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	6966,1	107,4
<b>Ohangaron</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	714,3	111,3
<b>Quy Chirchiq</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	7213,8	120,7
<b>Bekobod</b>		









	Sanoat mahsulotlari	% da
	244,3	113,4
<b>Parkent</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	2678,4	107,6
<b>Chirchiq</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	411,8	107,2
<b>Piskent</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	494,6	89,9
<b>Yangiyo'l</b>		


	Sanoat mahsulotlari	% da
	634,8	110,5
<b>O'rta Chirchiq</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da		Sanoat mahsulotlari	% da
	338,9	69,4		307,2	69,0
<b>Oqqo'rg'on</b>			<b>Chinoz</b>		
	Sanoat mahsulotlari	% da		Sanoat mahsulotlari	% da
	5973,7	98,3		903,5	112,9
<b>Ohangaron</b>			<b>Yuqori Chirchiq</b>		
	Sanoat mahsulotlari	% da		Sanoat mahsulotlari	% da
	150,0	112,3		820,6	108,9
<b>Bekobod</b>			<b>Toshkent</b>		
	Sanoat mahsulotlari	% da		Sanoat mahsulotlari	% da
	602,7	110,2		1060,6	107,0
<b>Yangiyo'l</b>			<b>Bo'stonliq</b>		

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1036,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 13,9 %ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Zangiota (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (11,3 %), Toshkent (12,5 %), Yuqori Chirchiq (8,9 %) tumanlarida kuzatildi.



Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Nurafshon (1,9%) va Bekobod (0,9 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Toshkent viloyatida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2024- yil yanvar oyida)

Bugungi kunda viloyatda 7273 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1022 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 14,0 %) Zangiota tumaniga, 654 tasi (8,9 %) Qibray tumaniga, 610 tasi (8,3%) Toshkent tumaniga, 467 tasi (6,4 %) Chirchiq shahriga, 352 tasi (4,8 %) Angren shahriga to'g'ri kelmoqda.



2024-yilning yanvar oyida viloyatda 88 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 15 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,0 %) Zangiota tumaniga, 5 tasi (5,6 %) Qibray tumaniga, 8 tasi (9,1 %) Toshkent tumaniga, 5 tasi (5,6 %) Chirchiq shahriga, 7 tasi (7,9 %) Angren shahriga to'g'ri kelmoqda.